

QO‘QON DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI

ILMIY XABARLARI

(2025-yil 2-son)



PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

ORCID: 0009-0002-9070-8477

O‘DK:37018

## OLIV FILOLOGIK TA‘LIMDA O‘QUV TOPSHIRIQLARINING TURLARI VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

*Khazratqulova Ozoda Abduganiyevna*

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, f.f.f.d.v.b.dots*

*Email: [ohazratqulova36@gmail.com](mailto:ohazratqulova36@gmail.com)*

*Tel: +998996881303*

**Annaotatsiya.** Bugungi kunda ta‘lim jarayoniga turli yangi pedagogik texnologiyalar tatbiq qilinmoqda. Ilmiy tadqiqotlar natijasida bir qator yangi tipdagi mashq va topshiriqlar amaliyotda sinab ko‘rilmogda. Jumladan, I.Davronov ning algoritmik mashqlar haqidagi fikr-mulohazalari bu boradagi yangicha yondashuvlardan biridir. Biroq ona tili o‘qitishda shunday mavzular bo‘ladiki, ularning ta‘limida didaktik o‘yinlardan ko‘ra an‘anaviy amaliy ishlar orqali kerakli natijaga erishish mumkin bo‘ladi. Ta‘kidlash kerakki, gapirishning yozishga va, aksincha, yozuvning og‘zaki nutqqa ta‘siri bo‘lishi tabiiy. Fan-texnika qanchalik shiddat bilan rivojlanmasin, zamonu zaminlar o‘zgarmasin, baribir insoniyat uchun yozma nutq masalasi hech qachon o‘z mohiyatini yo‘qotmaydi. Shunday ekan, bu masala hamisha ta‘limning birinchi darajali muammosi bo‘lib qolaveradi.

**Kalit so‘zlar.** O‘quv material, topshiriq, baholash ko‘nikmasi, gapirish ko‘nikmasi, tinglash ko‘nikmasi, tanlash ko‘nikmasi, umumlashtirish ko‘nikmasi.

### TYPES AND FUNCTIONAL CHARACTERISTICS OF STUDY TASKS IN HIGHER PHILOLOGICAL EDUCATION

**Annotation.** Today, different new pedagogical technologies are used in the educational process. As a result of scientific research, a number of new types of exercises and tasks are being tested in practice. In particular, I. Davronov's feedback on algorithmic exercises is one of the new approaches in this regard. However, there are such subjects in the teaching of the mother tongue that it is possible to achieve the desired result through traditional practical work rather than didactic games. It should be noted that it is natural for speaking to have an effect on writing and, conversely, writing on oral speech. No matter how rapidly science and technology develops, no matter how times and places change, the issue of written speech for mankind will never lose its essence. Therefore, this issue will always remain the primary problem of

education.

**Key words.** Study material, assignment, assessment skills, speaking skills, listening skills, selection skills, generalization skills.

## ВИДЫ И ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ УЧЕБНЫХ ЗАДАЧ В ВЫСШЕМ ФИЛОЛОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

**Аннотация.** Сегодня в образовательный процесс применяются различные новые педагогические технологии. В результате научных исследований на практике апробируется ряд новых видов упражнений и заданий. В частности, отзыв И. Давронова об алгоритмических упражнениях является одним из новых подходов в этом отношении. Однако в преподавании родного языка есть такие предметы, по которым можно добиться желаемого результата посредством традиционных практических занятий, а не дидактических игр. Следует отметить, что естественно, что говорение влияет на письмо и, наоборот, письмо на устную речь. Как бы быстро ни развивалась наука и техника, как бы ни менялись времена и места, вопрос письменной речи для человечества никогда не потеряет своей сути. Поэтому этот вопрос всегда будет оставаться первоочередной проблемой образования.

**Ключевые слова.** Изучение материала, задание, навыки оценивания, навыки говорения, навыки аудирования, навыки выбора, навыки обобщения.

**KIRISH.** Topshiriq jahon til o‘qitish metodikada o‘quv maqsadiga erishishga qaratilgan o‘quv jarayonining birligi bo‘lib, uning tuzilishini belgilaydi, til va nutq maqsadlariga erishishda ma‘lum darajada mashqdan farqlanishi bilan tavsiflanadi. O‘quv topshiriqlarini o‘zaro farqlash masalasi pedagogikada ham metodikada ham bahsli mavzudir.

Mashqlardan farqli ravishda topshiriqlar darsning tashkiliy jihatlariga, o‘quv materialini tushuntirishda va pedagogik aks ettirishda to‘liq kiritiladi. Topshiriq bir vaqtning o‘zida bir nechta mashqlarni o‘z ichiga olishi mumkin, masalan: Topshiriq.

Bugungi kunda ko‘plab xorijiy tillarni bilish muhimmi, yo‘qmi, hamkasbingiz bilan muhokama qilyapsiz.

– Nima uchun bu savolga qiziqayotganingizni tushuntiring.

Hamkasbingiz bu haqida nima deb o‘ylayotganini bilib oling.

Ushbu masala bo‘yicha fikringizni ko‘rsatadigan haqiqiy hayotiy ishni ayting.

– Izohni ifodalash vositalaridan foydalanish (kelishuv, taxmin, esga tushirish va boshqalar.) va nutq tuzish va hokazo.

Topshiriq va mashqlar o‘rtasidagi farq haqida atamalarni belgilab, misollar keltirish orqali bu savolga javob berishga harakat qilinadi.

Ingliz tili o‘qitish metodikasining eng xarakterli xususiyatlaridan biri topshiriqlar real harakatlarga qaratilishidir. Aksariyat darsliklarda hozirgi kunda kommunikativ natijaga ega bo‘lgan topshiriq va mashqlar shuningdek tildan to‘g‘ri foydalanish imkonini beruvchi til

mashqlari mavjud.

Topshiriq, odatda, bitta grammatik tuzilish bilan chegaralanmagan va lingvistik bo‘lmagan natijaga ega bo‘lgan kommunikativ harakatdir. Hayotiy topshiriq bilan pedagogik topshiriq o‘rtasida yana bir farq bor. Ikkinchisi, asosan, guruhda o‘qitish maqsadlari uchun mo‘ljallangan. Biroq, hayotiy topshiriqlar guruhdan tashqari til yordamida hal qilinadigan muloqot topshiriqlaridir. Ingliz metodikasida topshiriqning asosiy xususiyatlari quyida keltirilgan:

1. Bir emas, bir nechta ko‘nikmalarga qaratiladi.
2. Topshiriqlar kontekstda ishlatiladi.
3. Topshiriqlar kommunikativ va odatda hayotiydir.
4. Mazmunga e‘tibor qaratiladi.

Mashq odatda tilning bir elementiga qaratiladi va lingvistik natijaga ega bo‘lishni ko‘zlaydi:

1. O‘qituvchi mashqini boshqaradi va nazorat qiladi.
2. Odatda, diqqat markazida bitta mahorat turadi.
3. Kontekst haqida hech qanday ma‘lumot yo‘q.
4. Til mashqi kommunikativ emas.
5. Mantiqiylikka urg‘u berilmaydi, diqqat markazida shakli emas, balki mazmuni turadi.
6. Tuzatish odatda darhol amalga oshiriladi.

Ingliz tili o‘qitish metodikasi bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borayotgan pedagog, san‘atshunos professor Jak Richards “mashqlar muvofiq, yakunlovchi va o‘qib tushunish, yozish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Topshiriqlar nafaqat tilni o‘rganish, balki til bilan biror narsa qilishda ham natija beradigan har qanday faoliyat turini o‘z ichiga oladi”<sup>42</sup>, deydi.

Biz ham savol, mashq hamda topshiriqlar haqida o‘z kuzatishlarimizni olib bordik, ona tili o‘qitish metodikasi talablari doirasida tavsif va tasnif qildik. Kuzatishlarimiz natijasida ayrim namunalar ham yaratdik.

Topshiriq atamasiga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha ta‘rif berilgan: **“Topshiriq** 1. Kimsaning zimmasiga yuklatiladigan ish, vazifa. Hukumat topshirig‘i. Topshiriq bermoq. *Tergovchi ham xit bo‘ldi. Axir, u bu erga o‘ynagani kelmagan-ku. Maxsus topshiriq bilan oqni oqqa, qorani qoraga ajratgani kelgan.*”<sup>43</sup>.

Ko‘rinib turibdiki, har bir atama o‘z mazmun-mohiyatiga ega. Ya‘ni, ***mashq*** muayyan harakatni, bir necha bor aynan takrorlash orqali shu mashg‘ulotdan ko‘zlangan ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishni nazarda tutsa, **topshiriq kishining, jumladan, talabaning zimmasiga biror mavzuni mustahkamlash maqsadida bir marta bajarish uchun beriladigan ish, vazifani anglatadi**<sup>44</sup>.

Til ta‘limida foydalaniladigan topshiriqlar dastlab ikki turga bo‘linadi:

<sup>42</sup> <https://www.professorjackrichards.com/category/news/>

<sup>43</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 4-жилд. – Т.: ЎзМЭ, 2004, – 150 б.

<sup>44</sup> Ҳамроев Ғ. Умумий ўрта таълим тизимида фонетикага доир ўқув материалларнинг методик таъминотини такомиллаштириш. Пед. фан. фал.док.дисс. – Самарқанд, 2019. – 144 б.

1. An’anaviy topshiriqlar
2. Zamonaviy topshiriqlar

An’anaviy topshiriqlardan ham ta’lim jarayonida foydalanib kelinadi. Mazkur topshiriqning ahamiyatli ekanligini shu kunga qadar amal qilib kelinganidan ham bilish mumkin. Til o‘qitish mashg‘ulotlarida hali ham an’anaviy topshiriqlar qo‘llaniladi. “Berilgan gaplardan ot so‘z turkumiga mansub so‘zlarni toping”, “Berilgan matndan unlilarni toping va tavsiflang” kabi nutqiy ko‘nikmaning shakllanishiga xizmat qilmaydigan bir qancha topshiriqlar qatorida “Berilgan matndan noto‘g‘ri yozilgan so‘zlarni aniqlang”, “Quyidagi gaplardan qaysi birida tinish belgilari noo‘rin qo‘llanganini aniqlang” kabi an’anaviy bo‘lsa-da nutqiy malakani rivojlantirishga xizmat qiluvchi topshiriqlarni uchratish mumkin. Ammo bunday o‘quv topshiriqlari ko‘p emas, qolaversa, muayyan mezon asosida tizimli berilmaydi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.** Jamol Jaololovning “Chet tili o‘qitish metodikasi” darsligidada quyidagi o‘quv topshiriqlaridan foydalanilgan:

O‘quv-metodik topshiriqlar

1. Metodika fanining asosiy ilmiy tushunchalari nomlarini ayting va ular yordamida metodikaning predmetini aniqlang. 2. Umumiy va xususiy metodikaning bir-biridan farqini tushuntirib bering. 3. Tadqiqot metodlari nomlarini atang, ulaming turlarini va bir-biridan farqini anglab oling. 4. Tajriba-sinov metodi mohiyatini mufassal bayon eting<sup>45</sup>.

O‘quv-metodik topshiriqlar

1. Chet tili o‘qitish mazmunining tarkibiy qismlarini bayon qiling. 2. Metodik terminlar “mavzu”, “vaziyat”, “malaka”, “ko‘nikma”, “til material” va “til minimum”ni ifodalaydigan tushunchalar talqinini bayon eting. 3. Qaysi nutq faoliyati turlari bo‘yicha mavzu va vaziyat berilishi maqsadga muvofiqligini muhokama qiling<sup>46</sup>.

Berilgan o‘quv topshiriqlarning ayrimlari mavhum. Bayon qiling deyilgan, biroq u qanday shaklda (og‘zakimi yoki yozma) ekanligi ta’kidlanmagan. Qolaversa, mavzu bo‘yicha faqat topshiriq bilan kifoyalanilgan, savol va mashqlar tizimi berilmagan.

Zamonaviy topshiriqlarga qanday ehtiyoj sezilmoqda? Bugun zamon mustaqil, tanqidiy, yangicha fikrlaydigan kishilarni tarbiyalash vazifasini ta’lim oldiga muhim vazifa qilib qo‘ymoqda. O‘zbek tili, ingliz tili, rus tili o‘qitish bilan bir paytning o‘zida talabada mulohaza, mushohada, tanqidiy munosabat bildira olish malakasini ham rivojlantirish kerak. Topshiriqqa bir qator quyidagi rivojlantiruvchi vazifalarni bajarish mas’uliyati yuklanadi:

1. Qiyoslash imkonini beradigan topshiriqlar
2. Bilimni oshiradigan topshiriqlar
3. Bilimni mustahkamlaydigan topshiriqlar

<sup>45</sup>Jalolov J. Chet til o‘qitish metodikasi: chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik / J.J. Jalolov. — Toshkent: O‘qituvchi, 2012. — 432 b.

<sup>46</sup>Jalolov J. Chet til o‘qitish metodikasi: chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik / J.J. Jalolov. — Toshkent: O‘qituvchi, 2012. — 432 b.

4. Fikrlashga undaydigan topshiriqlar
5. Yozish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi topshiriqlar
6. O‘qish savodxonligini rivojlantiruvchi topshiriqlar
7. Gapirish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi topshiriqlar
8. Tinglash ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi topshiriqlar
9. Tanlash ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi topshiriqlar
10. Umumlashtirish ko‘nikmalarini shakllantiruvchi topshiriqlar.

Bulardan tashqari topshiriqlar egallangan bilim ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni tekshirib ko‘rish – sinash vazifasini ham bajaradi:

1. Tanlash, qiyoslash, ajratish va umumlashtirish ko‘nikmalarini sinashga doir topshiriqlar.

2. Bilimning oshganligi va xotira mustahkamlanganligini tekshiruvchi topshiriqlar.

3. Ko‘nikmalarni sinashga doir topshiriqlar

4. Malakalarni sinashga doir topshiriqlar

5. Kompetensiyani sinashga doir topshiriqlar

Jumladan, quyidagi nutqiy ko‘nikmalarining rivojlanganligi yoki shakllanganligini aniqlash bo‘yicha sinov topshiriqlari:

1. To‘g‘ri yozish ko‘nikmalarini sinashga doir topshiriqlar

2. To‘g‘ri gapirish ko‘nikmalarini sinashga doir topshiriqlar

3. O‘qish savodxonligini tekshirishga doir topshiriqlar

4. Eshitish ko‘nikmalarini tekshirishga doir topshiriqlar

Quyida o‘quv topshiriqlaridan foydalanish bo‘yicha bir namuna ishlab chiqilgan bo‘lib, tanlangan matn ustida ishlash orqali topshiriqlarning vazifaviy turlari keltiriladi. Ta‘kidlangani kabi topshiriqlardan dastlab bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda, keyin o‘zlashtirilgan bilim va egallangan ko‘nikma hamda malakalarni sinash vositasi sifatida ham foydalaniladi.

Biroq, pedagogika fanlari doktori, professor Uman Arkadiy Ilich ta‘lim topshiriqlari orasida ogohlantiruvchi ta‘sirga ega bo‘lmaganlari ham borligini ta‘kidlaydi<sup>47</sup>. Ular ta‘lim qobiliyatlari va ko‘nikmalarini takomillashtirish uchun o‘xshashlik bilan amalga oshiriladigan reproduktiv vazifalardir.

O‘quv faoliyatining tabiati bo‘yicha ikkinchi guruh vazifalari quyidagilardan iborat: o‘quv ma‘lumotlariga vositachilik qiluvchi o‘quv topshiriqlari; o‘quv materiallari bilan talabning ishini boshqaradigan o‘quv topshiriqlari: a) kuzatuv uchun topshiriqlar; b) matn bilan ishlash topshiriqlari; v) qobiliyat va ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan vazifalar.

O‘quv ma‘lumotlariga vositachilik qiladigan o‘quv topshiriqlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘quv materiallarini o‘z ichiga oladi yoki uni qaerdan olish mumkinligini ko‘rsatadi. Ushbu turdagi

---

<sup>47</sup>Уман А. И. Теоретические основы технологического подхода в дидактической подготовке учителя: дис. ... д-ра пед. наук. – Орел, 1996. – 402 с.

vazifalar o‘qituvchining tushuntirishini qisman o‘zgartiradi va o‘quv materialining dastlabki idrokiga yoki uni mustaqil o‘rganishga mo‘ljallangan.

J.Jalolovning ta’kidlashiga ko‘ra, mashqning talabi va materiali bor. Talab yuz foiz mashqda beriladi, material esa ochiq yoki xufiya tarzda bo‘lishi mumkin. Mashqning xufiya tarzidagi materialiga misollar: “Rasmga qarab, chet tilda gapirib bering”, bu yerda nutq nazarda tutiladi. Yoki “Sifatning qiyosiy va orttirma darajalarini qo‘llab, 103 gaplar tuzing”, bunda til birligi oldin o‘rganilganligi hisobga olinib, til tajribasidagi leksik-grammatik birliklarni qo‘llash tavsiya etiladi va h.k.<sup>48</sup>.

O‘quv materiallari bilan talabalarning ishini boshqaradigan o‘quv vazifalari talabani tushunish, o‘quv ma’lumotlarini tizimlashtirish, o‘z-o‘zini nazorat qilish; taqqoslashni, xulosalarni, umumlashtirishni taklif qiladi; yangi materialni ongli ravishda o‘zlashtirilishiga yordam beradi.

Topshiriqlar tizimini ishlab chiqishda BLUM taksonomiyasidan ham bevosita foydalanish lozim. Taksonomiya o‘quv faoliyatining turli sohalarini qamrab oladi: kognitiv (bilish), effektiv (hissiy-qadriyatli), psixomotor (harakatli). Shu bilan birga, agar talabalarga o‘z-o‘zini anglash uchun taqdim etiladigan o‘quv materiallari maxsus topshiriqlar bilan taqdim etilsa, ikkinchisining shakllanishi samaradorligi yuqori bo‘ladi.

Buyuk vatandoshimiz Abu Nasr Forobiy to‘g‘ri so‘zlash, to‘g‘ri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va go‘zal nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning ahamiyati haqida shunday deydi: «Qanday qilib ta’lim berish va ta’lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, so‘rash va qanday javob berish<sup>49</sup> (masalasi) ga kelganimizda, bu haqda bilimlarning eng birinchisi jismlarga (substansiya – narsalar) va aksidensiyalar) ga ism beruvchi til haqidagi ilmlar deb tasdiqlayman. Ikkinchi ilm grammatikadir; u jismlarga berilgan ism (nom) larni qanday tartibga solishni hamda substansiya va aksidensiyaning joylashishini va chiqadigan natijalarni ifodalovchi hikmatli so‘zlarni va nutqni qanday tuzishni o‘rgatadi<sup>50</sup>.

**NATIJAR VA MUHOKAMA.** Muhimi shuki, talabada, avvalo, o‘quv soati uchun ajratilgan har bir daqiqadan, darsliklarda berilayotgan har bir ma’lumotdan unumli foydalanish ko‘nikma hamda malakasini shakllantirish va rivojlantirish talab etiladi. Talabaga taqdim etilayotgan o‘quv materiallari birgina muammo yoki mavzu doirasidagina emas, balki birdaniga talabada ikki yoki uch zaruriy (adabiy talaffuz, imlo savodxonligi, zarur so‘z boyligi va mustaqil ishlash) malakalarini shakllantirishga xizmat qila olsa, ko‘zlangan maqsadga erishish oson bo‘ladi. Masalan, talabaga til fanining bo‘limlari haqida sof nazariy ma’lumotlarni ketma-ket berilgan. Talabaga ona tiliga doir biror topshiriq berishda nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish

<sup>48</sup>Jalolov J. Chet til o‘qitish metodikasi: chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik / J.J. Jalolov. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 432 b.

<sup>49</sup>Хамроев Ф.Х. Машқларнинг кўникма ҳамда малака ҳосил қилишига кўра таснифланиши // Илм ва жамият. – Нукус. №4. 2021. –Б.158-166.

<sup>50</sup>Абу Наср Форобий ўмэ. 2000.156.

barobarida imkon qadar ularda ravon nutq, mazmunli muloqot malakasini, mustaqil ishlay olish ko‘nikmasini shakllantirishga erishish darsning samaradorligini ta‘minlaydi.

Talabalar til imkoniyatlaridan mahorat bilan samarali foydalansalar, o‘z fikrlarini ta‘sirchan, tushunarli bayon qila olsalar, ajdodlardan qolgan boy ilmiy, badiiy merosni chuqur anglash darajasida o‘z tilini bilsalar, til ta‘limi o‘z maqsadiga erishgan bo‘ladi. Buning uchun til o‘rganish darslarida foydalaniladigan o‘quv materiallari nihoyatda puxta ishlanishi, ko‘nikmalarni kompleks tarzda shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. Bir paytning o‘zida ham talaffuz, ham imlo, ham so‘z boyligini oshirish, qolaversa, mustaqil fikrlashga yo‘naltirishga sharoit yaratish zarurati takrorlash jarayonini taqozo etadi, bu esa nutqiy mahoratni oshiradi.

Talaba nutqiy malakasining shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratuvchi fonetika, orfografiya, orfoepiya, punktuasiya bo‘limlarini o‘qitishda mashqlardan muntazam foydalanish, qolgan bo‘limlarni esa topshiriqlar asosida o‘qitish, fikrimizcha, kutilgan natijani beradi.

**XULOSA.** Maqolaning umumiy xulosasi sifatida quyidagi jadval filologik ta‘limda takomillashtirilgan o‘quv topshiriqlarining nomlanishi, tavsifi va tasniflarini ifodalaydi:

2.3-jadval

№	O‘quv topshirig‘ining nomi	Tavsifi	Turlari
1.	<b>Savol</b>	Ta‘lim oluvchining fan yoki mavzu doirasidagi bilimi, tasavvuri, munosabati va uni qanday shaklda bayon qilib bera olish ko‘nikmasini aniqlovchi o‘quv topshirig‘idir.	<i>an’anaviy va pragmatik; hayotiy va pedagogik, talaba tomonidan beriladigan savollar va o‘qituvchi tomonidan beriladigan savollar</i>
2.	<b>Mashq</b>	Ta‘lim jarayonida muayyan amaliy harakatni bir necha bor aynan takrorlash orqali shu mashg‘ulotdan ko‘zlangan ko‘nikma va malakaga ega bo‘lish tizimi	<i>jismoniy, tayyorgarlik, ijodiy, tasviriy, takrorlanuvchi, umumlashtiruvchi; shuningdek, grammatik: fonetik, leksik, morfologik va sintaktik. Nutqiy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish uchun: talaffuz, imlo, o‘qish, tinglab tushunish mashqlari.</i>
3.	<b>Topshiriq</b>	Kishi, jumladan, talabaga muayyan mazvuni o‘rgatish, mustahkamlash maqsadida bir marta bajarish uchun beriladigan ish, vazifa. Topshiriq nutqiy malakalarni rivojlantirish jarayonini tashkillashtiradi va ularni baholaydi.	<i>fikrlash, o‘qish, yozish, gapirish, tinglab tushunish, anglash, qo‘llash, tahlil qilish, sintez qilish, baholash kabi...</i>

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. <https://www.professorjackrichards.com/category/news/>
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 4-жилд. – Т.: ЎзМЭ, 2004, – 150 б.
3. Ҳамроев Ғ. Умумий ўрта таълим тизимида фонетикага доир ўқув материалларнинг методик таъминотини такомиллаштириш. Пед. фан. фал.док.дисс. – Самарқанд, 2019. – 144 б.
4. Jalolov J. Chet til o‘qitish metodikasi: chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik / J.J. Jalolov. — Toshkent: O‘qituvchi, 2012. — 432 b.
5. Jalolov J. Chet til o‘qitish metodikasi: chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik / J.J. Jalolov. — Toshkent: O‘qituvchi, 2012. — 432 b.
6. Уман А. И. Теоретические основы технологического подхода в дидактической подготовке учителя: дис. ... д-ра пед. наук. – Орел, 1996. – 402 с.
7. Jalolov J. Chet til o‘qitish metodikasi: chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik / J.J. Jalolov. — Toshkent: O‘qituvchi, 2012. — 432 b.
8. Ҳамроев Ғ.Ҳ. Машқларнинг кўникма ҳамда малака ҳосил қилишига кўра таснифланиши // Илм ва жамият. – Нукус. №4. 2021. –Б.158-166.
9. Абу Наср Форобий ЎМЭ. 2000.156.
10. Khazratqulova O.A. //Linguistic foundations of philological education reform.// JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH. I SSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6.4/2023, SJIF(2023)-3,778. 27.12.2023 P.870-874.
11. Hazratqulova O.A. //Oliy filologik ta’limda o‘quv topshiriqlari ustida ishlash bilan bog‘liq muammolar // O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/11/1] ISSN 2181-7324. B.259-261.